

**INNOVATSION TA’LIM MUHITINING BO’LAJAK O’QITUVCHILARDA
KONVERGENT KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHGA TA’SIRI**

Yusubjonova Gulchiroy Sarvarjon qizi
Namangan davlat universiteti, doktoranti
gulchiroyyusubjonova07@gmail.com,
+998771761499

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21205219>

Annotatsiya. Maqolada innovatsion ta’lim muhitining bo’lajak o’qituvchilarda konvergent kompetensiyani shakllantirishga bo’lgan ta’siri va uning pedagogik-psixologik xususiyatlari tadqiq etilgan. Zamonaviy ta’lim tizimida fanlararo bog’liqlikni ta’minlash va talabalarda integrallashgan bilimlarni rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida innovatsion ta’lim muhitining tarkibiy qismlari hamda ularning bo’lajak pedagoglarning konvergent fikrlash va muammolarga kompleks yondashish ko’nikmalarini shakllantirishdagi roli tahlil qilingan. Integrativ yondashuv asosida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish bo’yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda tajriba-sinov ishlari natijalari taklif etilgan metodikaning samaradorligini tasdiqladi.

Kalit so’zlar: innovatsion ta’lim muhiti, konvergent kompetensiya, integrativ yondashuv, bo’lajak o’qituvchi, fanlararo aloqadorlik, kasbiy tayyorgarlik.

Аннотация. В статье исследуется влияние инновационной образовательной среды на формирование конвергентной компетенции у будущих учителей, а также её педагогико-психологические особенности. Обеспечение междисциплинарных связей и развитие интегрированных знаний у студентов является одной из важнейших задач современной системы образования. В процессе исследования проанализированы компоненты инновационной образовательной среды и их роль в формировании у будущих педагогов навыков конвергентного мышления и комплексного подхода к решению задач. На основе интегративного подхода разработаны методические рекомендации по повышению профессиональной подготовки будущих учителей, а результаты опытно-экспериментальной работы подтвердили эффективность предложенной методики.

Ключевые слова: инновационная образовательная среда, конвергентная компетенция, интегративный подход, будущий учитель, междисциплинарная связь, профессиональная подготовка.

Abstract. The article examines the influence of the innovative educational environment on the formation of convergent competence in future teachers, as well as its pedagogical and psychological characteristics. Ensuring interdisciplinary connections and developing integrated knowledge among students is one of the most important tasks of the modern education system. In the course of the research, the components of the innovative educational environment and their role in the formation of future educators' convergent thinking and integrated problem-solving skills were analyzed. Based on an integrative approach, methodological recommendations for improving the professional training of future teachers have been developed, and the results of the experimental work confirmed the effectiveness of the proposed methodology.

Keywords: innovative educational environment, convergent competence, integrative approach, future teacher, interdisciplinary connectivity, professional training.

KIRISH. Bugungi rivojlanayotgan jamiyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng rivojlanayotgan davr hamda zamonaviy ta’lim jarayonida o’qituvchini tayyorlashga ham yangidan-yangi talablar qo’ymoqda. Bugungi kundagi ta’lim muhitiga bilim hamda innovatsion, kreativ fikrlashga ega, raqamli texnologiyalar bilan samarali ishlash, pedagogik jarayonni rivojlantiruvchi hamda boshqaruvchi mutaxassislar darkor. Shu sababdan, bo’lajak o’qituvchilarni innovatsion ta’lim texnologiyalarga asoslangan pedagogik jarayonga tayyorlash pedagogika fanining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylanib bormoqda.

Innovatsion ta’lim muhiti bugungi kunda talabalarning fanga bo’lgan qiziqishi, faollik, mustaqil o’rganish haamda bir qator kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Interaktiv usullar, raqamli platformalar, elektron resurslar, masofaviy o’qitish tizimlari kabi texnologiyalar o’z navbatida bo’lajak pedagogning o’rganish jarayonini osonlashtiradi.

Innovatsion ta’lim muhiti bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy shakllanishida, ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda muhim ro’l o’ynaydi. Bu muhit bo’lajak o’qituvchiga nafaqat bilim, balki fanlararo bog’liqlikni ham ta’minlab, pedagogik jarayonni samarali, mazmunli, qiziqarli tashkil etishga yordam beradi.

Innovatsion ta’limda integratsiya-bu bir nechta soha, fanlarni yaxlitlikda o’rgatish jarayonidir. Bunda o’qituvchi fan va texnologiya integratsiyasi orqali bolani tushunish ko’rsatkichini maksimal darajaga olib chiqa oladi. Sababi, texnologiyalar bizga biz tasavvur qila olmagan narsalarni ham ko’z oldimizda namoyon qila oladi. Yanada sodda qilib aytganda, Innovatsion ta’lim muhiti bo’lajak pedagogdagi faqat vosita emas, balki kasbiy dunyoqarashni o’zgartiruvchi, fanlararo bog’liqlikni amalda qo’llashga o’rgatuvchi va o’quv jarayonini modernizatsiya qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Zamonaviy ta’limda bo’lajak o’qituvchilarni har tomonlama rivojlantirish, bilimlarni integratsiyalashgan holda taqdim etish va u orqali real hayotiy muammolarni hal qilishga yo’naltirilgan kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bunday holda konvergent kompetentlik tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu kompetentlik o’z ichiga fanlararo integratsiya, analitik fikrlash, muammoli vaziyatda mustaqil qaror qabul qilish, kreativlik, texnologik va raqamli savodxonlik, tizimli fikrlash kabi ko’nikmalarini jamlaydi.

Konvergent kompetentlikni rivojlantirish jarayoni, talabalar turli sohalaridagi bilimlarni, ko’nikmalarni va tajribalarni birlashtirish, har xil masalalarni kompleks tarzda hal qilish ko’nikmalarini hosil qilishga xizmat qiladi. Shu sababli, zamonaviy o’quv jarayonida konvergent kompetentlikni rivojlantirish o’zining strategik ahamiyatini kundan-kunga kuchaytirib bormoqda. Bu jarayonda integrativ yondashuv ta’lim mazmunining yanada boyitish, talabalarning kreativ va tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ular o’rtasida integrallashgan aloqalarni o’rnatish imkonini yaratadi.

Professor M.H.Quvvatovanning tadqiqotlarida esa integratsiya kompetentsiyaviy yondashuv bilan bog’lanib, talabalarda murakkab muammolarni fanlararo darajada yechish ko’nikmalarini shakllantirish zarurligi ta’kidlanadi. Metodist olimlar S.Alixonov va M.Mamirovlarning matematik ta’limdagi fanlararo bog’liqlik va mazmuniy uzviylik borasidagi qarashlari bizga o’qitishda "nazariya-amaliyot-tatbiq" zanjirini yaratish imkonini



beradi. Jahon va milliy pedagogikadagi mavjud nazariyalar integratsiyaning oddiy shakllaridan konvergent yondashuv darajasiga o'tish zarurligini ko'rsatmoqda. Bu esa bizning tadqiqotimizda integrative yondashuv asosida talabalarda yaxlit konvergent kompetentsiyani shakllantirish metodikasini ishlab chiqishimizni ilmiy jihatdan asoslaydi.

Metodologiyasi. Bugungi kunga kelib ta'limda konvergentsiya o'z rivojini topa boshlagan bo'lib, tabiiy, aniq hamda ijtimoiy fanlar bilan uzviy ravishda zamonaviy texnologiyalar sohasidagi rivojlanishning fundamental tamoyillariga asoslangan ilmiy bilimlar va texnologik yutuqlarni birlashtirgan va insoniyatning uzviy rivojlanishi jarayonida fan va texnologiyalarning o'zaro kirib borishini aks ettiruvchi yaxlit akademik fanlar rivojlanishidir.

Mazkur tadqiqotning metodologik fundamentini kompetensiyaviy, tizimli-faoliyatli hamda konstruktivistik yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda innovatsion ta'lim muhitini bo'lajak pedagoglarning konvergent kompetensiyasini rivojlantiruvchi pedagogic omillardan biri sifatida talqin etiladi. Konvergent kompetensiya fanlararo bilimlarni integratsiyalash, bugungi kundagi zamonaviy pedagogik muammolarni kompleks hal etish, raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish hamda innovatsion fikrlash ko'nikmalarining uyg'unlashuvi sifatida qaraladi.

Tadqiqotda aralash metodologiya qo'llanilib, miqdoriy usulidan foydalanildi. Miqdoriy tahlil bo'lajak o'qituvchilarning konvergent kompetensiyasi darajasidagi o'zgarishlarni aniqlashga hamda innovatsion ta'lim muhitning ta'sirini chuqur bilishga yo'naltirildi. Ma'lumotlarni yig'ish jarayonida pedagogik kuzatuv, anketa so'rovlari metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning eksperimental qismida esa innovatsion ta'lim muhiti elementlari – raqamli ta'lim platformalari, loyiha asosida o'qitish, hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalari va refleksiv faoliyat vositalarining konvergent kompetensiyani shakllantirishdagi samaradorligi baholandi. Olingan natijalar matematik-statistik baholash orqali qayta ishlanib, ularning ishonchlilik darajasi aniqlashtirildi.

Natija va muhokama. Tadqiqot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarga innovatsion ta'lim muhitining konvergent kompetensiyani shakllantirishga ta'siri tajriba-sinov dasturi asosida o'rganildi. Dastlab tadqiqotning diagnostik bosqichida ishtirokchilarning konvergent kompetensiyasi kognitiv, operatsion-faoliyatli, kommunikativ, refleksiv va raqamli komponentlar kesimida baholandi. Dastlabki natijalar tahliliga ko'ra, talabalar orasida konvergent kompetensiyaning yuqori darajada emasligi, aksariyat respondentlarda mazkur kompetensiya o'rta va past darajalarda namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Bu holat esa o'z navbatida, bo'lajak o'qituvchilarning fanlararo integratsiya, muammolarni kompleks hal etish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni pedagogik faoliyatga tatbiq etish bo'yicha qo'shimcha rivojlantirish zaruriyatini tasdiqladi.

Keyingi shakllantiruvchi bosqichda innovatsion ta'lim muhitining asosiy komponentlari – raqamli ta'lim platformalari, loyiha asosida o'qitish, hamkorlikdagi ta'lim, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va refleksiv faoliyat elementlari ta'lim jarayoniga integratsiya qilindi. Mazkur jarayon talabalarni mustaqil izlanish, jamoaviy hamkorlik, kreativ fikrlash va fanlararo bilimlarni uyg'unlashtirishga yo'naltirdi.

Tajriba so'ngida o'tkazilgan takroriy diagnostika natijalari tajriba guruhi talabalarida konvergent kompetensiyaning barcha komponentlari bo'yicha ijobiy dinamikasi namoyon etdi. Bundan esa, talabalarining fanlararo integratsiya qilish, turli bilim sohalari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va innovatsion yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlari sezilarli

darajada rivojlanganligi kuzatildi. Shuningdek, raqamli vositalardan ta’limiy maqsadlarda foydalanish, axborotni tanqidiy baholash va qayta ishlash hamda pedagogik vaziyatlarga mos innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish ko’nikmalarining o’sishi qayd etildi.

Konvergent kompetensiya darajasi	Tajriba guruhi (n=62)	Nazorat guruhi (n=60)
Yuqori	35,7	20,0
O’rta	50,0	51,7
Past	14,3	28,3
Jami	100	100

1-jadval. Innovatsion ta’lim muhitining konvergent kompetensiyaning rivojlantirishga ta’siri bo’yicha so’nggi natijalar.

Tadqiqot yakunida tajriba guruhida konvergent kompetensiyaning yuqori darajasi 38,7 foizni tashkil etib, nazorat guruhiga nisbatan 15,7 foizga yuqori ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, past darajadagi ko’rsatkich tajriba guruhida 14,3 foizni tashkil etgan bo’lsa, nazorat guruhida ushbu ko’rsatkich 28,3 foizga teng bo’ldi. Olingan natijalar innovatsion ta’lim muhiti elementlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo’lajak o’qituvchilarning konvergent kompetensiyasini rivojlantirishda samarali ekanligini ko’rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot davomida olingan natijalari innovatsion ta’lim muhitining bo’lajak o’qituvchilarda konvergent kompetensiyaning shakllantirishda muhim pedagogik omillardan ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot davomida raqamli ta’lim texnologiyalar, loyiha asosida o’qitish, hamkorlikdagi ta’lim va refleksiv faoliyat elementlarini o’z ichiga olgan innovatsion ta’lim muhiti talabalarning fanlararo bilimlarni integratsiyalash, muammolarni kompleks tahlil qilish hamda innovatsion yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko’rsatishi aniqlandi. Tajriba-sinov ishlari natijalari innovatsion ta’lim muhitida tahsil olgan talabalar konvergent kompetensiyasining kognitiv, operatsion-faoliyatli, kommunikativ, refleksiv va raqamli komponentlari bo’yicha sezilarli ijobiy o’zgarishlar kuzatilganligini talabalarning fanlararo fikrlash, jamoada samarali ishlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsadli foydalanish va kasbiy faoliyatga oid muammolarni hal etish ko’nikmalari yanada rivojlanganligidan bilish mumkin.

Bundan xulosa qilib ayta olamizki, innovatsion ta’lim muhitini bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlash jarayoniga tizimli ravishda joriy etish ularning kasbiy kompetentligini oshirish, zamonaviy ta’lim talablariga moslashuvchanligini kuchaytirish hamda kelgusidagi pedagogik faoliyatida samarali faoliyat yuritishlari uchun zarur bo’lgan konvergent kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalaridan pedagog kadrlar tayyorlash dasturlarini takomillashtirish, ta’lim jarayonini innovatsion tashkil etish hamda konvergent kompetensiyaning rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni. “2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”.
2. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. O’RQ–637-son. – Toshkent, 2020.
3. Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik va pedagogik innovatsiyalar. – Toshkent: Fan, 2016. – 224 b.



4. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 272 b.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2020. – 312 b.
6. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 192 b.
7. John Raven. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. – London: H.K. Lewis, 1984. – 251 p.
8. Dominique Simone Rychen., Laura Hersh Salganik (Eds.). Key Competencies for a Successful Life and a Well-Functioning Society. – Göttingen: Hogrefe & Huber Publishers, 2003. – 206 p.
9. Lev Vygotsky. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
10. Tony Wagner. The Global Achievement Gap: Why Even Our Best Schools Don't Teach the New Survival Skills Our Children Need. – New York: Basic Books, 2008. – 303 p.